




# QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2021- yil yanvar oyi uchun  
dastlabki  
ma'lumot)*

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **26 045,4** ming AQSH dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **8 947,7** mln. AQSH dollariga yoki **26,6** % ga kamaydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI

(yanvar, ming AQSH dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'sish su'rati, % da	Jamiga nisbatan, % da
 Tashqi savdo aylanmasi	34 993,1	26 045,4	74,4 %	x
<b>Eksport</b> 	<b>20 021,7</b>	<b>11 757,2</b>	<b>58,7 %</b>	<b>100,0</b>
 <i>Tovarlar</i>	19 605,0	11 689,8	59,6	99,4
 <i>Xizmatlar</i>	416,7	67,4	16,2	0,6
<b>Import</b> 	<b>14 971,4</b>	<b>14 288,2</b>	<b>95,4 %</b>	<b>100</b>
 <i>Tovarlar</i>	14 971,4	14 288,2	95,4	100,0
 <i>Xizmatlar</i>	0,0	0,0	0,0	0,0
 <b>Saldo</b>	5 050,3	-2 531,1	x	x



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **11 757,2** ming AQSH dollariga (**41,3 %** ga kamaydi) va import hajmi **14 288,2** ming AQSH dollariga (**4,6 %** ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – **2 531,1** mln. AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayt etildi.

## QASHQADARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar, ming AQSH dollari)



Xitoy Xalq Respublikasi

TSA – 6 200,7  
Eksport – 1 551,4  
Import – 4 649,3



Turkiya

TSA – 5 816,7  
Eksport – 3 728,3  
Import – 2 088,4



Rossiya Federatsiyasi

TSA – 3 521,0  
Eksport – 1 196,3  
Import – 2 324,7



Qozog'iston

TSA – 2 323,8  
Eksport – 672,4  
Import – 1 651,4



Eron

TSA – 1 096,6  
Eksport – 910,4  
Import – 186,2



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 960,6  
Eksport – 934,1  
Import – 26,5



Kanada

TSA – 692,7  
Eksport – 0,0  
Import – 692,7



Latviya

TSA – 640,5  
Eksport – 0,0  
Import – 640,5



Avstriya

TSA – 639,4  
Eksport – 0,0  
Import – 639,4



Tojikiston

TSA – 579,7  
Eksport – 471,6  
Import – 108,1




Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSAda MDH davlatlari bilan Qozog'iston, Tojikiston va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Eron va Kanada davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan



## 20 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan o'n ikkita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Turkiya (1 639,9 ming AQSH dollari), Qirg'iz Respublikasi (907,7 ming AQSH dollari), Eron (724,2 ming AQSH dollari), va Pokiston (433,1 ming AQSH dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 8 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



Qashqadaryo viloyati, jahonning 45 ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (23,8 %), Turkiyada (22,3 %), Rossiya Federatsiyasida (13,5 %), Qozog'istonda (8,9 %), Eronda (4,2 %), Qirg'iz Respublikasida (3,7 %) va Kanadada (2,7 %) qayd etilgan.



## QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar, ming AQSH dollari)













	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>1 2142,4</b>	<b>9 208,0</b>	<b>6 200,7</b>
	<i>Eksport</i>	2 109,5	4 357,2	1 551,4
	<i>Import</i>	10 032,9	4 850,8	4 649,3
	<b>Turkiya</b>	<b>6 700,5</b>	<b>2 999,7</b>	<b>5 816,7</b>
	<i>Eksport</i>	5 838,6	2 682,5	3 728,3
	<i>Import</i>	861,9	317,2	2 088,4
	<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>3 900,5</b>	<b>4 497,4</b>	<b>3 521,0</b>
	<i>Eksport</i>	1997,4	2 514,9	1 196,3
	<i>Import</i>	1 903,0	1 982,6	2 324,7
	<b>Qozog'iston</b>	<b>1 490,8</b>	<b>1 341,2</b>	<b>2 323,8</b>
	<i>Eksport</i>	770,6	1 117,2	672,4
	<i>Import</i>	720,2	224,0	1651,4
	<b>Eron</b>	<b>885,1</b>	<b>2 798,3</b>	<b>1 096,7</b>
	<i>Eksport</i>	808,1	2764,4	910,4
	<i>Import</i>	77,0	33,9	186,2
	<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>652,7</b>	<b>1 204,0</b>	<b>960,6</b>
	<i>Eksport</i>	652,7	151,2	934,1
	<i>Import</i>	-	1 052,8	26,5
	<b>Kanada</b>	<b>357,1</b>	<b>2,2</b>	<b>692,7</b>
	<i>Eksport</i>	-	2,2	-
	<i>Import</i>	357,1	-	692,7
	<b>Latviya</b>	<b>81,2</b>	<b>26,3</b>	<b>1 279,9</b>
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	81,2	-	640,5
	<b>Avstriya</b>	<b>0,0</b>	<b>26,3</b>	<b>639,4</b>
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	-	26,3	639,4
	<b>Tojikiston</b>	<b>61,9</b>	<b>90,0</b>	<b>579,7</b>
	<i>Eksport</i>	0,1	90,0	471,6
	<i>Import</i>	61,8	-	108,1



## QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar, ming AQSH dollari)



	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	<b>Pokiston</b>	<b>578,7</b>	<b>1 995,2</b>	<b>453,5</b>
	<i>Eksport</i>	436,7	1 995,2	443,3
	<i>Import</i>	142,1	-	10,2
	<b>Turkmaniston</b>	<b>291,5</b>	<b>108,4</b>	<b>429,5</b>
	<i>Eksport</i>	18,6	67,2	245,2
	<i>Import</i>	272,9	41,2	184,4
	<b>Hindiston</b>	<b>20,0</b>	<b>748,8</b>	<b>396,9</b>
	<i>Eksport</i>	20,0	75,3	326,0
	<i>Import</i>	0,0	673,5	70,9
	<b>Afg'oniston</b>	<b>239,9</b>	<b>1 285,4</b>	<b>326,8</b>
	<i>Eksport</i>	239,9	1 285,4	326,8
	<i>Import</i>	-	-	-
	<b>Misr</b>	-	<b>0,4</b>	<b>320,9</b>
	<i>Eksport</i>	-	0,4	320,9
	<i>Import</i>	-	-	-
	<b>Ukraina</b>	<b>2 589,3</b>	<b>550,2</b>	<b>289,6</b>
	<i>Eksport</i>	9,3	488,8	218,6
	<i>Import</i>	2 579,9	61,4	71,0
	<b>Singapur</b>	<b>82,5</b>	<b>217,7</b>	<b>254,3</b>
	<i>Eksport</i>	82,5	217,7	254,3
	<i>Import</i>	-	-	0,0
	<b>Polsha</b>	<b>8,2</b>	<b>72,2</b>	<b>209,3</b>
	<i>Eksport</i>	8,2	-	-
	<i>Import</i>	-	72,2	209,3
	<b>Germaniya</b>	<b>206,5</b>	<b>660,0</b>	<b>139,0</b>
	<i>Eksport</i>	-	15,4	-
	<i>Import</i>	206,5	644,6	139,0
	<b>Yaponiya</b>	<b>2,5</b>	-	<b>103,2</b>
	<i>Eksport</i>	0,2	-	98,5
	<i>Import</i>	2,3	-	4,8



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar 2021- yil)

	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>26 045,4</b>	<b>74,4</b>
<i>hududlar:</i>		
Qarshi sh.	3 636,6	36,2
Shahrisabz sh.	429,8	124,2
G'uzor	3 885,6	165,0
Dehqonobod	1 318,2	24,8
Qamashi	1 425,7	2,5 m.
Qarshi	5 102,0	96,2
Koson	1 351,9	2,3 m.
Kitob	2 953,7	2,3 m.
Mirishkor	439,4	2,4 m.
Muborak	401,3	90,3
Nishon	1 677,6	10,2 m.
Kasbi	743,7	50,7
Chiroqchi	632,9	54,0
Shahrisabz	478,7	128,3
Yakkabog'	1 511,6	86,7

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSH dollari

**Qarshi sh. – 5 102,0**

**G'uzor – 3 885,6**

**Qarshi sh. – 3 636,6**

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSH dollari

**Mirishkor – 439,4**

**Shahrisabz sh. – 429,8**

**Muborak – 401,3**

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Qarshi tumani **19,6 %** ulush bilan **5 102,0** ming. AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Muborak tumani **1,5 %** ulush bilan **401,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.





Qashqadaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2021- yilning yanvar oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **22,3 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi **0,4 %** ga kamaygan.

### QASHQADARYO VILOYATIINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar, ming AQSH dollari, ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021- yilning yanvar oyida 2020- yilga nisbatan **1,3 %** ga kamaydi va jami TSA dagi ulushi **68,8 %** ni tashkil etdi.





## QASHQADARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar, ming AQSH dollari)




Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar holatiga **8 104,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport – **11 757,2** ming AQSH dollariga yetgan bolsa, import – **14 288,2** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**13,5%**), Qozog'iston (**8,9%**), Qirg'iz Respublikasi (**3,7 %**), Tojikiston (**2,2 %**), Turkmaniston (**1,6%**) va Ukraina (**1,1 %**) davlatlari bilan qayd etildi.



## QASHQADARYO VILOYATINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI


(yanvar, ming AQSH dollari, ulushi, % da)




Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi



Jami eksportdagi ulushi



Jami importdagi ulushi



2020- yil 11- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi.

YOII bilan Qashqadaryo viloyatiining tashqi savdo aylanmasi **6 805,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **2 802,8** ming AQSH dollari, import hajmi **4 002,6** ming AQSH dollariga yetdi.



## QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI


(2021- yil yanvar)



2021- yilning yanvar oyida viloyatning eksportyorlari soni **52** tani tashkil etib, ular tomonidan **11 757,2** ming AQSH dollari (qimmat baho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan **41,3** % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,4** % ni tashkil etib, ular yuqori ulushga egalari sanoat tovarlari (**62,2** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**11,7**%) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**14,6** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
<b>Jami eksport</b>	<b>20 021,8</b>	<b>11 757,2</b>	<b>128,7</b>	<b>58,7</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3 117,6	1 374,5	71,7	44,1	15,6	11,7
Ichimliklar va tamaki	77,5	2,6	-	3,3	0,4	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4 955,1	779,8	8,1 m.	15,7	24,7	6,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	319,9	254,3	173,4	79,5	1,6	2,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	3 521,5	1 719,8	95,8	48,8	17,6	14,6
Sanoat tovarlari	7 464,1	7 314,4	118,2	98,0	37,3	62,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1,7	-	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	147,7	244,5	2,5 m.	165,6	0,7	2,1
Xizmatlar	416,7	67,3	112,6	16,2	2,1	0,6



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2020- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	1 362,5	46,3
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3,2	2,3
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	2,6	100,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	194,1	4,2
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	362,0	2,6 m.
Moyli va moyli o'simliklar	117,8	63,5
O'g'it xomashyosi	105,9	194,3
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar</b>		
Elektr toki	254,3	156,5
<b>Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1 719,8	110,6
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	7 175,4	109,2
Metall buyumlar	101,1	100,0
Metall bo'lmagan minerallardan PE mahsuloti	37,9	100,0
Metall bo'lmagan mineral mahsulotlar, masalan.	37,9	100,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim va kiyim-kechak uchun aksessuarlar	148,6	100,6
Boshqa joyda tasniflanmagan turli xil tayyor mahsulotlar	95,8	100
Mebel va uning detallari	0,2	100





# MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020- yilning yanvaridagi **22,2** % dan 2021- yilning yanvarida **31,8** % ga ko'paydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **68,2** % ni tashkil etdi.



- Xitoy Xalq Respublikasi
- Rossiya Federatsiyasi
- Turkiya
- Qirg'iz Respublikasi



- Eron
- Qozog'iston
- Tojikiston
- Boshqa davlatlar



**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar, % da)**

2021- yilning yanvar oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining **31,7** % i), Rossiya Federatsiyasi (**13,2** %), Turkiya (**10,2** %), Qirg'iz Respublikasi (**7,9** %), Eron (**7,7** %), Eron (**7,7** %), Qozog'iston (**5,7** %) va Tojikiston (**5,7** %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **80,4** foizni tashkil etmoqda.



## QASHQADARYO VILOYATIINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar, yillar kesimida)



Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Xitoy Xalq Respublikasi	2 682,5	3 728,3	45,9	139,0	3	1
Rossiya Federatsiyasi	4 357,2	1 551,4	2,1 m.	35,6	1	2
Turkiya	2 514,9	1 196,3	125,9	47,6	4	3
Qozog'iston	151,2	934,1	23,2	6,2 m.	12	4
Afgoniston	2 764,4	910,4	3,4 m.	32,9	2	5
Qirg'iz Respublikasi	1 117,2	672,4	145,0	60,2	8	6
Tojikiston	90,0	471,6	818 m.	5,2 m.	14	7
Kanada	1 995,2	443,3	4,6 m.	22,2	5	8
Eron	1 285,4	326,8	5,4 m.	25,4	7	9
Tojikiston	75,3	326,0	3,8 m.	4,3 m.	16	10
Ukraina	0,4	320,9	100,0	729,0 m.	27	11
BAA	217,7	254,3	2,6 m.	116,8	11	12
Pokiston	67,2	245,2	3,6 m.	3,6 m.	17	13
Fransiya	488,8	218,6	52,5 m.	44,7	9	14
Germaniya	-	98,5	-	100,0	33	15
Polsha	82,7	45,6	100,0	55,2	15	16
Singapur	1,3	4,0	182,6	3,0 m.	24	17
Ozarbayjon	0,0	2,6	69,6	79,0 m.	31	18
Koreya Respublikasi	0,4	0,7	4,5 m.	192,4	29	19
Buyuk Britaniya	0,6	-	100,0	7,4	25	20



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar)



	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>11 757,2</b>	<b>58,7</b>
<i>hududlar:</i>		
Qarshi sh.	2 034,1	29,0
Shahrisabz sh.	-	-
G'uzor	1 886,7	119,3
Dehqonobod	362,0	17,4
Qamashi	1 405,2	3,1 m.
Qarshi	3 460,4	85,8
Koson	1 056,9	2,1 m.
Kitob	691,1	155,9
Mirishkor	304,3	169,1
Muborak	109,1	61,3
Nishon	-	-
Kasbi	98,5	-
Chiroqchi	50,8	4,9
Shahrisabz	40,3	12,2
Yakkabog'	251,6	15,5
Boshqalar	6,2	4,1

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSH dollari

**Qarshi – 3 460,4**

**Qarshi sh. – 2 034,1**

**Qamashi – 1 405,2**

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSH dollari

**Shahrisabz – 40,3**

**Shahrisabz sh.- 0,0**

**Nishon – 0,0**

ViLOYAT eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Qarshi tumanida **29,4** % ulush bilan **3 460,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

ViLOYAT eksporti tarkibida eng quyi ulushlarni Shahrisabz tumanida **0,3** % ulush bilan **40,3** ming AQSH dollarini (Shahrisabz shahri va Nishon tumanida eksport bo'lmagan) tashkil etdi.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Viloyatdagi meva-sabzavot sektori viloyat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **1 381,9** ming AQSH dollari qiymatli **3 113,0** tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan **48,5 %** ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **838,8** ming AQSH dollariga teng **2 785,1** tonna sabzavot, shuningdek, **328,1** ming. AQSH dollari qiymatidagi **543,1** tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2021- yil yanvar)









Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **11,8 %** ni tashkil etdi.

## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar)



Davlatlar	tonna	ming AQSH dollari	ulushi, % da *
 Qirg'iz Respublikasi	216,7	426,0	30,8
 Rossiya Federatsiyasi	624,9	257,8	18,7
 Afg'oniston	317,6	242,9	17,6
 Turkmaniston	1589,2	239,4	17,3
 Pokiston	165,9	116,0	8,4
 Ukraina	64,0	40,4	2,9
 Tojikiston	67,9	27,1	2,0
 Xitoy Xalq Respublikasi	25,5	25,5	1,8
 Qozog'iston	41,6	6,7	0,5

\* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keladi meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **30,8 %** i ni tashkil qiladi..



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda **7 420,3** ming AQSH dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **63,1** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **46,3** ming AQSH dollarga kamaydi..

### TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar, ming. AQSH dollari)



		2019- yil	2020- yil	2021- yil
				
	<b>Mahsulot nomi</b>	<b>6 491,9</b>	<b>7 466,5</b>	<b>7 420,2</b>
	Paxta iplari	6 100,8	6 313,8	6 854,0
	Tayyor trikotaj va tikuvchilik buyumlari	58,7	147,7	148,6
	Trikotaj mato	19,7	-	5,8
	Boshqa to'qilgan to'qimachilik buyumlari, lattalar	21,3	1,7	-
	Paxta matolari	26,6	28,4	166,5
	Ipak va ipak mahsulotlari	120,4	746,2	96,3
	Paxta momig'i, namat va to'quv bo'lmagan materiallar, arqonlar	144,3	228,7	147,2
	Boshqalar	-	-	1,9



## DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar, ming AQSH dollari)



		2019- yil	2020- yil	2021- yil
		6 491,9	7 466,5	7 420,2
	Xitoy Xalq Respublikasi	2 109,5	1 280,5	1 525,9
	Hindiston	-	74,3	-
	Eron	656,8	1 117,1	852,7
	Qozog‘iston	99,9	153,2	319,5
	Qirg‘iz Respublikasi	185,9	102,3	1,9
	Moldova	-	58,1	-
	Moldova	375,8	617,3	285,8
	Rossiya Federatsiyasi	895,9	942,0	737,6
	Turkiya	2 168,1	2 633,3	3 376,0
	Ukraina	-	488,4	-
	Misr	-	-	320,8

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (1525,9 ming. AQSH dollari – 20,6 %), Eron (852,7 ming. AQSH dollari – 11,5 %) va Qozog‘iston (319,5 ming AQSH dollari – 4,3 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI


(2021- yil yanvar, ulushi, % da)




**Moliyaviy xizmatlar** **67,3 %**



**Boshqa biznes xizmatlari** **14,8 %**



**Sayohat (turizm)** **14,5 %**



**Transport xizmatlari** **3,3 %**



**Qurilish xizmatlari** **0,1 %**



Xizmatlar eksporti hajmi **67,4** ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **0,6 %** ini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **83,8 %** ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy (**67,3 %**), boshqa biznes xizmatlari (**14,8 %**), sayohat (**14,5 %**), transport (**3,3 %**) hamda qurilish xizmatlar (**0,1 %**) hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, boshqa xizmatlar (**14,8 %**)ni tashkil etib, tarkibida savdo va boshqa biznes xizmatlari (**14,8 %**) hissasiga to'g'ri keldi.




## QASHQADARYO VILOYATNING IMPORTI (2021- yil yanvar)



2021- yilning yanvar oyida import hajmi **14 288,2** ming. AQSH dollarini va 2020- yilga nisbatan **4,6 %** ga kamayish kuzatildi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**48,1 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**18,5 %**) hamda sanoat tovarlari (**14,4 %**) hisobiga to'g'ri keldi.

### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **683,2** ming AQSH dollariga kamaydi va **14 288,2** ming. AQSH dollarini tashkil etdi..



## QASHQADARYO VILOYATI XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (yanvar, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
<b>Jami import</b>	<b>14 971,4</b>	<b>14 288,3</b>	<b>76,6</b>	<b>95,4</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	429,3	2 642,1	11,7	17,6	2,9	18,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	793,0	778,2	128,6	5,2	5,3	5,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	120,0	484,3	19,9	3,2	0,8	3,4
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	29,0	-	0,2	-	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	944,1	1 071,5	75,1	7,2	6,3	7,5
Sanoat tovarlar	1 470,4	2 057,1	20,2	13,7	9,8	14,4
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	10 354,9	6 876,1	187,7	45,9	69,2	48,1
Turli xil tayyor buyumlar	859,7	350,0	142,8	2,3	5,7	2,5



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2020-yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Tirik hayvonlar, 03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	1 896,7	14,9 m.
Hububot va undan olinadigan mahsulotlar	32,6	88,9
Hayvonlarga ozuqa (ishlov berilmagan donalardan tashqari)	46,0	45,4
Go'sht va go'sht mahsulotlari	95,1	100,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Moyli va moyli o'simliklar	63,4	3,0 m.
Metall rudalari va metall parchalari	639,7	100,0
Qo'ziqorin va yog'och	72,0	9,3
O'g'it xomashyosi va mineral xom ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	3,0	100,0
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar</b>		
Yog', neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	484,3	4,0 m.
<b>Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
Xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan o'simlik moylari va yog'lari	29,0	100
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Bo'yoqlar va taninlar va bo'yoqlar	95,7	95,2
Tibbiy va farmatsevtika mahsulotlari	52,6	51,0
Anorganik kimyoviy moddalar	0,8	3,8
Organik kimyoviy moddalar	565,7	114,5
Birlamchi bo'lmagan plastik	332,7	6,3 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	17,6	100,0
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy moddalar va mahsulotlar	1,2	1,3
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga tayyorgarlik, jilolash va yuvish vositalari	5,2	100,0



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2020- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Metall buyumlar	748,6	176,6
Mantar va yog'ochdan ishlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	48,5	100,0
Metall bo'lmagan mineral mahsulotlar, masalan.	188,7	5,3 m.
Kauchuk mahsulotlari	137,4	4,8 m.
To'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar va boshqalar	20,2	8,5
Rangli metallar	227,7	4,5 m.
Quyma temir va po'latdir	686,1	98,8
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtoulovlar	1 372,9	15,7 m.
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni ko'paytirish uchun asboblari va uskunalar	0,4	0,2
Ish yuritish va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uskunolari	25,4	7,8
Metallni qayta ishlash uchun mashinalar	0,9	3,1
Maxsus tarmoqlar uchun maxsus ishlab chiqarilgan mashinalar	2014,9	27,9
Sanoat uchun ixtisoslashtirilgan bo'lmagan mashinalar va uskunalar, sh.x., va mashina qismlari.	2358,0	109,7
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari (shu jumladan boshqa joylarda tasniflanmagan elektr maishiy texnika uchun elektr bo'lmagan qismlar)	948,6	6,4 m.
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	155,2	106,1
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Santexnika, isitish va yoritish uskunolari uchun binolarni, armatura va moslamalarni to'sib qo'ying.	187,4	22,9
Oyoq kiyimlari	5,7	100,0
Boshqa joyda tasniflanmagan turli xil tayyor mahsulotlar	20,3	26,5 m.
Maxsus, ilmiy va boshqaruv asboblari va apparatlari.	136,6	4,8 m.


Umumiy tovarlar importi o'tgan yilga nisbatan kamayishiga qaramay ayrim tovar guruhlari o'sish kuzatildi. Masalan, Avtoulovlar – **1 372,9** ming AQSH dollari (o'sish – **15,7 martta**), Tirik hayvonlar – **1 896,7** ming AQSH dollari (o'sish – **14,9 martta**), Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari – **948,6** ming AQSH dollari (o'sish – **6,4 martta**).




MDH va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushi 30,6:69,4 nisbatni tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar oyi yakuni bo'yicha Qashqadaryo viloyati tomonidan **38** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston, Kanada, Latviya va Avstriya jami importning **88,8** % ulushini tashkil qildi, bu **12 686,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



**VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI**  
(2021- yil yanvar, % da)

## QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar, yillar kesimida)



Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Xitoy Xalq Respublikasi	4 850,8	4 649,3	48,3	95,8	1	1
Rossiya Federatsiyasi	1 982,6	2 324,7	104,2	117,3	3	2
Turkiya	317,2	2 088,4	36,8	6,6 m.	11	3
Qozog'iston	224,0	1 651,4	31,1	7,4 m.	12	4
Kanada	-	692,7	-	-	26	5
Latviya	-	640,5	-	-	27	6
Avstriya	26,3	639,4	-	24,3 m.	23	7
Polsha	72,2	209,3	-	2,9 m.	15	8
Eron	33,9	186,2	44,0	5,5 m.	21	9
Turkmaniston	41,2	184,4	15,1	4,5 m.	20	10
Germaniya	644,6	139,0	3,1 m.	21,6	7	11
Tojikiston	-	108,1	-	-	28	12
Isroil	-	99,7	-	-	29	13
Ekvador	54,7	92,0	2,3 m.	168,2	18	14
Avstraliya	378,0	83,9	-	22,2	9	15
Ukraina	61,4	71,0	2,4	115,8	17	16
Hindiston	673,5	70,9	-	10,5	6	17
AQSH	20,6	59,8	109,5	2,9 m.	24	18
BAA	69,7	51,3	26,5 m.	73,6	16	19
Argentena	-	48,4	-	-	30	20



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2021- yil yanvar)



	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>14 288,3</b>	<b>95,4</b>
<i>hududlar:</i>		
Qarshi sh.	1 602,5	52,7
Shahrisabz sh.	429,8	18,8 m.
G'uzor	1 998,9	2,6 m.
Dehqonobod	956,2	29,6
Qamashi	20,5	16,7
Qarshi	1 641,6	129,5
Koson	295,0	3,4 m.
Kitob	2 262,6	2,6 m.
Mirishkor	135,1	100,0
Muborak	292,2	109,8
Nishon	1 677,6	27 m.
Kasbi	645,2	44,0
Chiroqchi	582,1	4,4 m.
Shahrisabz	438,4	10,5 m.
Yakkabog'	1 260,0	10, m.
Boshqalar	50,5	1,5

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSH dollari

**Kitob- 2 262,6**

**G'uzor – 1 998,9**

**Nishon - 1 677,6**

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSH dollari

**Muborak – 292,2**

**Mirishkor – 135,1**

**Qamashi – 20,5**

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Kitob tumani **15,8 %** ulush bilan **2 262,6** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Qamashi tumani **0,1 %** ulush bilan **20,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2021- yil yanvar oyida import tarkibida mashinalar va transport-asbob uskunalari hajmi **6 876,2** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **54,1** foizga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **48,1** % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalari asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

### MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HANKOR DAVLATLAR (2021- yil yanvar)



<b>32,5%</b>	<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b> 4 649,3 ming AQSH dollari
<b>16,3%</b>	<b>Rossiya Federatsiyasi</b> 2 324,7 ming AQSH dollari
<b>14,6%</b>	<b>Turkiya</b> 2 088,4 ming AQSH dollari
<b>11,6%</b>	<b>Qozog'iston</b> 1 651,4 ming AQSH dollari
<b>4,9%</b>	<b>Kanada</b> 692,7 ming AQSH dollari




## SANOAT TOVARLARI IMPORTI



2021- yil yanvar oyida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **2 057,1** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **39,9** foizga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **14,4** % ga yetdi.

### SANOAT MAHULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021- yil yanvar)



#### Xitoy Xalq Respublikasi

900,3 ming AQSH dollari  
ulushi – 43,8 %



#### Rossiya Federatsiyasi

396,6 ming. AQSH dollari  
ulushi – 19,3 %



#### Turkiya

245,1 ming AQSH dollari  
ulushi – 11,9 %



#### Qozog'iston

230,5 ming AQSH dollari  
ulushi – 11,2 %



#### Tojikiston

108,1 ming AQSH dollari  
ulushi – 5,3 %



Sanoat tovarlari importi asosan metall buyumlar (**748,6** ming AQSH dollari) quyma temir va po'latdir (**686,1** ming AQSH dollari), to'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar va boshqalar (**227,7** ming AQSH dollari), metall bo'lmagan mineral mahsulotlar, masalan. (**188,7** ming AQSH dollari) va kauchuk mahsulotlari (**137,4** ming AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**  
Tel: (75) 221 44 28

